
Qo'shtepada futbol va mini-futbol bo'yicha an'anaviy DXX kubogining saralash bosqichiga start berildi

Uyushmagan, ayni paytda ishsiz yoshlari o'rtasida jismoniy tarbiya va sportni, shuningdek, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish, yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishiga, xususan, sportning mini-futbol va futbol turlarini yoshlari orasida ommalashtirish, iqtidorli sportchilarni erta aniqlash maqsadida Qo'shtepa tumanida Davlat xavfsizlik xizmati kubogi musobaqalariga start berildi.

Bugun, tumandagi BO'SMda musobaqaning tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Yuqori saviyada tashkil etilgan ochilish marosimida tuman hokimi I.Novikov, sektor rahbarlari hamda tegishli tashkilot mutasaddilari ishtirok etishib, futbol jamoalariga g'oliblik sari borishlari uchun omadlar tilashdi.

Shundan so'ng ilk bellashuvlarga start berildi. Ta'kidlash joizki, mazkur DXX kubogining saralash musobaqasi dastlab, tumandagi 4 ta sektor kesimida 51 ta mahalla yoshlardan tashkil topgan jamoalar hududlarga bo'lingan holda o'zaro kuch sinashishadi. G'olib jamoalar tuman, viloyat va respublika bosqichlarida ishtirok etishadi.





